ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH
ISSN: 3060-4745 IF(Impact Factor)10.71 / 2025 Volume 3, Issue 10

AYRIM ICHKI KASALLIK TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASI FONIDA KECHADIGAN HOMILADORLIK VA TUG'RUQNING XUSUSIYATLARI

Nasriddinova Safona Normeyli qizi
Termiz iqisodiyot va servis universiteti Akusherlik va ginekologiya kafedrasi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: Mazkur ilmiy tadqiqotda temir tanqisligi anemiyasi fonida kechadigan homiladorlik va tug‘ruq jarayonlarining klinik xususiyatlari, kasallikning ona va homila organizmiga ta’siri, akusherlik hamda perinatal asoratlarning rivojlanish xavfi, shuningdek, ularni erta aniqlash, davolash va profilaktika qilishning zamonaviy yondashuvlari o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi temir tanqisligi anemiyasining turli og‘irlik darajalarida homiladorlik va tug‘ruqning kechish xususiyatlarini qiyosiy baholash, klinik-laborator ko‘rsatkichlar bilan akusherlik natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda tibbiy yordam samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot Surxondaryo viloyatidagi tug‘ruq muassasalari va ayollar maslahatxonalarida 2022–2024-yillar davomida kuzatuvda bo‘lgan jami 100 nafar ayolning klinik ma’lumotlarini retrospektiv va prospektiv tahlil qilishga asoslangan. Ishtirokchilar temir tanqisligi anemiyasining og‘irlik darajasi va homiladorlik asoratlariga ko‘ra guruhlarga ajratilgan hamda anemiya kuzatilmagan sog‘lom homilador ayollardan iborat nazorat guruhi bilan taqqoslangan. Tadqiqotda gemoglobin, ferritin, eritrotsitlar miqdori, ultratovush tekshiruvlari va umumiy klinik kuzatuv natijalarini kompleks baholash nazarda tutilgan. Olingan ma’lumotlar asosida temir tanqisligi anemiyasining homiladorlik va tug‘ruq jarayoniga ta’sirini aniqlash, ona va homila salomatligiga xavf tug‘diruvchi omillarni baholash, diagnostika hamda davolash-profilaktika tadbirlarini takomillashtirish kutilmoqda. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati temir tanqisligi anemiyasi mavjud homilador ayollarga individual yondashuvni shakllantirish, akusherlik va perinatal asoratlar xavfini kamaytirish hamda onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimida ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Mavzuning dolzarbligi:

Temir tanqisligi anemiyasi homilador ayollar orasida eng ko‘p uchraydigan patologiyalardan biridir. Dunyoda har uchinchi homilador ayolda anemiya qayd etiladi. O‘zbekiston, xususan Surxondaryo viloyatida ovqatlanishdagi muvozanatsizlik,

ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va profilaktika choralarining sustligi tufayli bu kasallik keng tarqalgan. Anemiya homiladorlikning asoratli kechishiga, homila rivojlanishida nuqsonlarga va tug‘ruqdagi xavfli holatlarga sabab bo‘ladi. Shunga qaramay, ushbu holatning klinik jihatlari, lokal xususiyatlari va samarali davolash yo‘llari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Ilmiy manbalar va misollar

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda 40% homilador ayollarda temir tanqisligi anemiyasi aniqlanadi. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash statistikasi bo‘yicha esa bu ko‘rsatkich 2023 yilda 55% ga yetgan. Temir tanqisligi anemiyasi bo‘yicha prof. A. T. Yunusxo‘jayev, dots. G. R. Karimova kabi mahalliy olimlarning ishlari mavjud bo‘lsa-da, aynan Surxondaryo viloyatida o‘tkazilgan izlanishlar yetarli emas.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi — temir tanqisligi anemiyasi bilan og‘rigan homilador ayollarda homiladorlik va tug‘ruq jarayonining klinik kechishini baholash, asoratlarni aniqlash hamda profilaktik va davolovchi choralarni ishlab chiqishdir.

Tadqiqot vazifalari:

Temir tanqisligi anemiyasining homiladorlik va tug‘ruqqa ta’sirini o‘rganish

Klinik belgilar va laborator ko‘rsatkichlar asosida xulosa chiqarish

Mavjud diagnostika va davolash usullarini baholash

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot Surxondaryo viloyatining tug‘ruqxona va ayollar maslahatxonalarida 2022–2024 yillar davomida olib borildi. Tadqiqotda temir tanqisligi anemiyasi tashxisi bilan ro‘yxatga olingan homilador ayollar ishtirok etdi. Tadqiqot retrospektiv va prospektiv usullarda olib borildi.

Tadqiqot ishtirokchilari quyidagi guruhlarga ajratildi:

1-guruh (n=20) – temir tanqisligi anemiyasining yengil darajasiga ega bo‘lgan homilador ayollar.

2-guruh (n=20) – temir tanqisligi anemiyasining o‘rta darajasi aniqlangan homilador ayollar.

3-guruh (n=20) – og‘ir darajadagi temir tanqisligi anemiyasi bilan ro‘yxatga olingan homilador ayollar.

4-guruh (n=20) – temir tanqisligi anemiyasi bilan og‘rigan bo‘lib, homiladorlik vaqtida tug‘ruqqa yaqin keskin asoratlar bilan yotqizilgan ayollar.

Nazorat guruhi (n=20) – fiziologik normal homiladorlik kechirayotgan, anemiya belgilari kuzatilmagan sog‘lom ayollar.

Tadqiqot usullari:

Klinik-eksperimental usullar — retrospektiv va prospektiv kuzatuv.

Diagnostik usullar — laborator tekshiruvlar (gemoglobin, ferretin, eritrotsitlar soni), ultratovush tekshiruvlari (UTT), umumiy klinik kuzatishlar.

Statistik tahlil usullari — foizli taqqoslash, χ^2 testi va grafik tahlillar yordamida natijalar baholandi.

Ilmiy yangilik darajasi:

Surxondaryo viloyati misolida kesarcha kesish ko‘rsatkichlari va uning sabablariga ilmiy baho beriladi.

Bachadon chandiqli ayollarda va qayta kesarcha kesish natijalari birinchi marta keng qamrovli tahlil qilinad va xavfsiz tug‘ruqni ta’minlash uchun yangi klinik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati

Akusher-ginekologlar uchun bachadon chandiqli ayollarda tug‘ruq usulini tanlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tug‘ruq natijalarini yaxshilash orqali onalik va perinatal asoratlarni kamaytirishga hissa qo‘shiladi.

O‘zbekiston sharoitida chandiqli bachadon bilan homiladorlikni olib borish bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar yaratishga asos bo‘ladi.

Tadbiq etilishi;

Akusher-ginekologiya klinikalarida – tug‘ruq usulini tanlash bo‘yicha tavsiyalar.

Ilmiy-tadqiqot markazlarida – bachadon chandiqli ayollar bo‘yicha yangi tadqiqotlar olib borish.

Tibbiyot oliygohlarida – akusherlik va ginekologiya bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish

Adabiyotlar:

1. World Health Organization. Guideline on haemoglobin cutoffs to define anaemia in individuals and populations. Geneva: WHO; 2024. 79 p. ISBN: 978-92-4-008854-2.

2. World Health Organization. Daily iron and folic acid supplementation during pregnancy. WHO eLENA; updated 26 July 2024.

3. World Health Organization. WHO recommendations on antenatal care for a positive pregnancy experience. Geneva: WHO; 2016.

4. World Health Organization. Guideline: Daily Iron and Folic Acid Supplementation in Pregnant Women. Geneva: WHO; 2012. 27 p. ISBN: 978-92-4-150199-6.

5. Muñoz M., Peña-Rosas J.P., Robinson S. et al. Patient blood management in obstetrics: management of anaemia and haematinic deficiencies in pregnancy and in the post-partum period: NATA consensus statement // Transfusion Medicine. 2018. DOI: 10.1111/tme.12443.

6. Peña-Rosas J.P., De-Regil L.M., Garcia-Casal M.N., Dowswell T. Daily oral iron supplementation during pregnancy // Cochrane Database of Systematic Reviews. 2015. Issue 7. Art. No.: CD004736. DOI: 10.1002/14651858.CD004736.pub5.

7. Pavord S., Daru J., Prasannan N. et al. UK guidelines on the management of iron deficiency in pregnancy // British Journal of Haematology. 2020. Vol. 188, No. 6. P. 819–830. DOI: 10.1111/bjh.16221.

8. Achebe M.M., Gafter-Gvili A. How I treat anemia in pregnancy: iron, cobalamin, and folate // Blood. 2017. Vol. 129, No. 8. P. 940–949. DOI: 10.1182/blood-2016-08-672246.